



KONSTITUTSIYA - HAYOTIMIZNING, TARAQQIYOTIMIZNING HUQUQIY ASOSI

Qodirova Feruza Mamurovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Tillarni o'rganish kafedrası dotsenti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04- December 2023 yil
Ma'qullandi: 10- December 2023 yil
Nashr qilindi: 14-December 2023 yil

KEY WORDS

Konstitutsiya, huquqiy davlat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, erkin iqtisodiyot, huquqiy asos.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 31 yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rin egallashda Asosiy Qonunimiz mustahkam zamin bo'lib kelmoqda. Ushbu maqola hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi bo'lgan Konstitutsiyaga bag'ishlanadi.

Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'ydi. Bu oliy maqsad yo'lida shu kungacha ko'pdan-ko'p ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini konstitutsiya va qonun ustunligiga erishmay, ularni ham normativ hujjatlarda, ham amalda ta'minlamay turib qurib bo'lmaydi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yangi konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Muhtaram Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, "Har bir davlat o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko'ramiz. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo'lish, ta'lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so'z hamda e'tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tardi".

Ko'hna zaminimiz odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, imon, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug' xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o'rin olgan. U umuminsoniy g'oyalar – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug' g'oyalarga xizmat qiladi.

Konstitutsiya - nafaqat bugungi kunning qomusi, balki u ertangi kunimiz, qurayotgan jamiyatimiz istiqbolini aniqlab beruvchi hujjat, farzandlarimiz yo'lini yoritib turguvchi mayoqdir.

Yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro mansabi, kasbi, millatidan qat'i nazar, Asosiy Qomusimizga benuqson amal qilishi lozim. Bu biz shu kungacha erishgan va kelgusida albatta erishishimiz mumkin bo'lgan yutuqlarning eng muhim shartidir.

Konstitutsiyamiz inson huquqi, inson erkinligini o'zida muhrlab bergan, vijdon erinligi va diniy er-kinligimizni ta'minlab bergan. Konstitutsiyamizning biz uchun muqaddasligi yana shundan iboratki, har qan-day taraqqiyot uchun garov bo'lmish tinchlik, osoyishtalik, totuv hayotning asoslarini belgilab bergan.

Darhaqiqat, Konstitutsiya jamiyat uchun nihoyatda muhim hujjat ekanligi, uning har tomonlama mukammal qabul qilinishi, birinchi galda, xalqning manfaatiga xizmat qilsa, ikkinchidan, inson va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'ullik munosabatlarini atroflicha tartibga soladi. Konstitutsiya orqali davlat o'z o'rni va nufuzini dunyo hamjamiyatida namoyon qiladi. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda kuchli faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Mazkur konstitutsiyaviy komissiya tarkibiga barcha hududlardan deputatlar, senatorlar, jamiyatning turli qatlamlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, yetuk huquqshunos va siyosatshunoslar hamda boshqa ekspertlar kiritildi. Bundan ko'rinib turibdiki barcha teng huquqligi qonun bo'yicha ham amalga oshirilib borilyabdi.

-2022-2025-yillarda turizm sohasidagi hamkorlik dasturi;

-Fan, texnika va innovatsiya sohalarida o'zaro anglashuv to'g'risida memorandum;

-Bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarining harakati to'g'risida elektron bojxona axborotini almashish to'g'risida memorandum ;

Shu va shu kabi ikki tomonlama imzolangan bitim va memorandumlar Samarqand shahri mezbonlik qilgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Eron Prezidenti Ibroxim Raisi Qo'shma bayonot imzoladi. Bu faqat bitta davlat bilan bir nechta bitim edi. U yerda O'zbekiston va 14 ta davlat bor edi. Mana o'zgarish, rivojlanish, yuksalish. Konstitutsiyamiz bor ekan xalqaro bitimlar bardavom bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneyliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega.

4-modda. Axborot erkinligi

Bu moddani bejizga keltirib o'tmadim. Sababi, xalq va davlat o'rtasida muhim ro'l o'ynaydigan shaxslar-jurnalistlar uchun ham bir qator erkinlik, ochiq eshiklar makonini ocha boshladi. Moddada keltirib o'tilganidek axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Bu bilan avvalgi tahdidlar qonun bilan cheklandi. Barchamiz juda yaxshi bilamiz jurnalist nomi ostida yursa ham, aslida kimningdir qo'g'irchog'i bo'lgan. Bugungi kunda aslo qo'rqishga hojat qolmadi deyarli. Jurnalistlar o'zining ishini qilyabdi. Bo'lishi mumkin ora -sirada kichik senzura chalar uchrab turishi. Ammo qonun bunga yechim topadi. Bu achchiq haqiqat!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga binoan, senzura yo'l qo'yilmaydi. Axborot olish va tarqatish kafolatlariga oid "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" (2002-yil 12-dekabr), "Axborotlashtirish to'g'risida" (2003-yil 11-dekabr), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997-yil 25-dekabr) gi qonunlar qabul qilingan. Jurnalistlarning quroli qonunlarni yaxshi bilishi va Konstitutsiyasini sevishidir. Qisqa qilib aytganda Konstitutsiya chindan ham himoyachi. Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori. Davlat organlarida xizmat bo'yicha o'sish tartibida davlat xizmati lavozimlarini egallash maqsadida tanlov asosida rahbar lavozimlarini egallash uchun kadrlar zaxirasi shakllantirilishi muhim ahamiyatga egadir. Shunday qilib, strategik dasturda davlat xizmati to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish davlat xizmati faoliyatini to'g'ri va samarali faoliyati yuritishida katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi. „Davlat organlari va masnsabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va ochiqqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Shu borada yana bir fikrni yana takrorlab aytmoqchiman: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak“.

Konstitutsiya - davlatimiz, jamiyatimiz va har qanday inson sa'y-harakatlarini, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilab va chegaralab beruvchi Qomus. Konstitutsiyamizda o'z yechimi va qarorini topgan eng muhim talab - inson huquqining davlat huquqidan ustuvorligi.

Konstitutsiyamiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat - burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas. Balki u hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosda qurish, o'z haq-huquqimizni ta'minlash, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini o'rnatish-ning hayotbaxsh manbaidir.

Erishgan yutuqlarimizning, bugun kechayotgan tinch va osuda hayotimizning, ertangi kunimizga bo'lgan ishonchimizning, xalqaro maydonda ortib borayotgan obro'-e'tiborimizning negizida Konstitutsiyamiz belgilab, muhrlab bergan qonuniy va huquqiy asoslar turgani va ularni og'ishmay hayotimizga tatbiq etayotganimiz mujassamdir.

Konstitutsiyamizning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan beqiyos ahamiyati va tarixiy rolini, birinchi navbatda, biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan milliy davlatchilik va uning ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratish, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan siyosiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevorni aynan Asosiy Qonunimiz belgilab berganida ko'ramiz.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlarning prinsipial qoidalarini o'zida mujassam etgan holda, Konstitutsiyamiz inson huquq va manfaatlari, uning erkinliklari davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamladi, odamlarimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratishni o'zining tub maqsadi etib belgiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini e'lon qildi.

Davr o'tishi bilan biz Konstitutsiyamizning ahamiyati va mohiyatini, hayotimizdagi o'rni va ta'sirini, qadr-qimmatini yanada chuqurroq anglab bormoqdamiz va unga bo'lgan hurmat-e'tiborimiz tobora ortmoqda.

8 dekabr - Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunni katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik voqea sifatida keng nishonlash hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Ushbu qutlug' sana umumxalq bayramlarimiz qatoridan munosib joy olib, yurtimizda yashaydigan

har qaysi fuqaro, har qaysi oila taqdirida, ularning bugungi hayoti, ertangi kelajagini, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda Konstitutsiyaning beqiyos o'rne, ahamiyati va ta'sirini yana bir bor eslash va tasavvur qilishga undaydi.

Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani—bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2018.
2. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.xs.uz rasmiy sayti. 20.12.2022
3. Mamurovna, Q. F., & Baxodirovna, N. G. (2022). KONSTITUTSIYA-FAROVON HAYOT TAMOIYILI. Science and innovation, 1(B3), 126-128.
4. https://uzsm.uz/uz/press_center/uzb_news/konstitutsiya-va-qonunustuvorligi-huquqiydemokratik-davlat-va-fuqarolik-jamiyatining-eng-muhimmez/

INNOVATIVE
ACADEMY